

Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹

2026- yil yanvar-may oylari dastlabki ma'lumoti


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026- yil yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **25 203,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,5** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **4 683,3** mlrd. so'mga o'sishi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: 2025- yil yanvar-may oylarida xizmatlar hajmi 20 520,5 mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa 112,1 % ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2025- yilning yanvar-may oylariga nisbatan (**4 411,1** ming so'm) 2026- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 141,6** ming so'mga yoki **13,2** % ga o'sib, **6 767,2** ming so'mni tashkil etgan.

2026- yilni tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **18 368,1** mlrd. so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **72,9** % ini, jumladan, **58,0** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

¹ 2025- yil may oyi hajmi va 2026- yil may oyi uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2026- yil yanvar-may oylari

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Qashqadaryo viloyati	25203,8	100,0	115,5
Qarshi shahar	4194,9	16,6	119,7
Shahrisabz shahar	668,8	2,7	126,2
tumanlar:		0,0	
G'uzor tumani	576,2	2,3	116,6
Dehqonobod tumani	454,2	1,8	116,5
Qamashi tumani	947,1	3,8	121,1
Qarshi tumani	1035,5	4,1	121,5
Koson tumani	1049,1	4,2	119,3
Kitob tumani	1044,3	4,1	115,6
Mirishkor tumani	620,7	2,5	117,3
Muborak tumani	712,2	2,8	117,4
Nishon tumani	591,5	2,4	119,8
Kasbi tumani	661,2	2,6	116,0
Ko'kdala tumani	228,4	0,9	119,0
Chiroqchi tumani	514,0	2,0	117,5
Shahrisabz tumani	545,9	2,2	118,6
Yakkabog' tumani	764,3	3,0	115,9

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlar **31,7 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissasi **2,3** bandni tashkil etdi), transport xizmatlari **18,1 %** ga (o'sishiga hissasi **1,9** band), yashash va ovqatlanish xizmatlari **21,2 %** ga (o'sishiga hissasi **4,6** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **9,5 %** ga (o'sishiga qo'shgan hissasi **0,2** band), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar **9,1 %** ga (o'sishiga hissasi **0,1** band) va savdo xizmatlari **17,5 %** ga (o'sishiga hissasi **3,2** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-may oylari)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2025- y.	2026- y.	
Xizmatlar – jami	20 520,5	25 203,8	115,5
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	584,8	695,3	109,5
moliyaviy xizmatlar	2 094,1	2 830,7	131,7
transport xizmatlari	2 679,2	3 417,4	118,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 283,1	2 967,2	121,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	439,7	582,5	121,2
savdo xizmatlari	2 975,6	3 675,9	117,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	240,5	282,0	111,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	664,8	752,4	112,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	200,0	226,7	109,1
ijara xizmatlari	277,7	320,5	108,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	413,3	508,9	113,7
shaxsiy xizmatlar	454,9	549,0	109,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	115,2	183,5	142,4
boshqa xizmatlar	473,5	583,6	116,1


Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2026- yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari **25,1** %, transport xizmatlari **23,9** %, moliyaviy xizmatlari **19,8** %, boshqa xizmatlar **3,9** % ulushini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **36,3** foiz, savdo xizmatlari **17,3** foiz, transport xizmatlari **14,1** foiz, moliyaviy xizmatlar **11,0** foiz, boshqa xizmatlar **3,3** foiz ulushni tashkil etgan.


**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi
2026- yil yanvar-may oylari, %**



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **85,3** foizni tashkil etdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan esa **6,1** foizga o'sgan.

2026- yilning yanvar-may oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlarda** o'sish kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan hajmi **729,4** mlrd. so'mga yoki **37,9** foizga o'sishi kuzatilgan.

moliyaviy va sug'urta xizmatlariga yordamchi xizmatlar o'sish sur'ati dinamikasi



2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **avtotransport xizmatlari (119,7 %)**, **pochta va kuryerlik xizmatlarida (127,8 %)** yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Havo transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, parvozlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **100,0 %** ni tashkil etdi. 2026- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **122,4 %** ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lagicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan



xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi

Manzil: 180100, Qashqaryo
viloyati, Mustaqillik ko'chasi, 2 B-
uy **Pochta:** gashstat@umail.uz
Tel.: 75-221-05-27, 75- 221-32-44

